



KASBIY STANDARTLAR ASOSIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TA'LIM DASTURIDA AKS ETISHI

Ustababayeva Xafiza Artikovna

Professional ta'limgan rivojlantirish
instituti, bosh mutaxassis

Annotatsiya. Maqolada kasbiy standartlar asosida kompetensiyaviy yondashuvni ta'limgan dasturida aks etishi, kasb standartlarining ta'limgan dasturlariga integratsiyasi, kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'limgan o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: kasbiy standart, kompetensiya, ta'limgan dasturi, kasb, mutaxassisliklar, professional modul, o'quv jarayoni.

KIRISH


XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'limgan mazmunini madernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limganda kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish muammosiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetentsiyaviy yondashuvning mazmunida ta'limgan tizimida yuz berayotgan innovatsion jarayonlar aks etadi. Bu esa ta'limgan mazmunini qayta qurish va uning sifatini nazorat qilish, ya'ni kompetentlik tizimiga o'tish lozimligini ko'rsatadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari DTSlariga kiritilgan tayanch kompetentsiyalar tahlili mazkur muammoga yangicha qarash va yondashuvlar har bir mamlakatning ta'limgan ko'zlangan maqsadi, shart-sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqqanligidan dalolat beradi. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti davomida ta'limgan jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish uchun dunyo mamlakatlari ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ta'limganda kompetentsiyaviy yondashuv ta'limgan oluvchilarni murakkab faoliyat turlariga jalb etadi, shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini shakllantiradi. Kompetentsiyaviy yondashuvning tayanch nuqtasi ta'limgan umumiy mazmun mohiyatidan kelib chiqqan xolda, uning maqsadlariga xizmat qiladi. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida shaxsda bir qator harakat va faoliyatlar tizimini bajarish bo'yicha kompetentsiyalar zaxirasi shakllanadi. Mazkur tadqiqot mavzusini nazariy tadbiq etishdan oldin atamalarning mazmun-mohiyatiga mualliflik yondashuvni bo'lmog'i zarur. Jumladan, "Kompetentsiya" tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, uning mazmun-mohiyati turli soha olimlari tomonidan turlicha talqin etiladi [1].

"Kompetentsiya" – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik ma'nolarini anglatadi. "Kompetentsiya" (lotincha somrete - erishaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman). Aniq tashkilotga yoki lavozimdagiligi shaxsga qonun, nizom yoki boshqa rasmiy hujjat



bilan taqdim etilgan vakolat. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ta’kidlanishicha: “Kompetentsiya (lot. Somreto – erishyapman, munosibman, loyiqliman) ma’nosini anglatib, muayyan davlat organi (mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjati bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba demaktir”. Kompetentlik atamasi lotincha “somrete” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishyapman”, “munosibman” degan ma’noni 36 anglatadi hamda ma’lum sohadan habardorligini, bildirishni va tajribaga ega ekanligini bildiradi [2; 1-b.].


Kasbiy kompetensiyalar professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoridagi kasb va u bo‘yicha beriladigan kvalifikatsiyalar malaka darajasi ushbu kasb bo‘yicha ishlab chiqilgan kasbiy standartdagi belgilangan malaka darajasi o‘zaro mos bo‘lishi kerak. Kasbiy standartdagi mehnat funksiyalari va ushbu mehnat fuksiyalarini bajarish uchun zarur mehnat harakatlari kasbiy kompetensiyalar sifatida aks etadi. Ta’lim dasturlarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun o‘qitish natijalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan professional modul aniqlanadi (1-rasm). Kasbiy standartlarda mehnat funksiyasi mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq mehnat harakatlari majmuasi sifatidir. Kasbiy kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga asoslangan holda mutaxassisga kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniyatini beradigan mehnat vazifalari majmuasini hal qilish qobiliyatidir.





1-rasm. Kompetensiya, modul, o‘quv natijalari va baholash mezonlarining o‘zaro bog‘liqligi

Shunday qilib, mutaxassisning mehnat vazifalari majmuasini hal qilish qobiliyati kasbiy kompetensiyadir, ya’ni kasbiy kompetensiya mehnat funksiyasini bajarish sifatida belgilanadi. Kasbiy modul – bu o‘quv dasturining mustaqil va to‘liq bo‘limi bo‘lib, talabalarning kompetensiyalar asosida kasbiy vazifalar to‘plamini hal qilish qobiliyatini egallashiga qaratilgan.



2-rasm. Kasb standartning tarkibiy qismlari va ta’lim dasturining bog‘liqligi

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslangan holda, kasb standartning tarkibiy qismlari va ma’lum bir kvalifikatsiya bo‘yicha ta’lim dasturining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash mumkin (2-rasm). Odadta kasbiy standartning mehnat funksiyalariga keltirilgan ma’lumotlar asosida o‘quvchilarning ta’lim jarayonida egallashi kerak bo‘lgan kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi. Lekin ko‘p hollarda mehnat funksiyalarini kasbiy kompetensiyalar sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib qo‘yib bo‘lmaydi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun har bir umumlashtirilgan mehnat funksiyasi doirasidagi mehnat funksiyalari va mehnat harakati mantiqiy tahlil qilinib ma’lumotlarni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tahlil qilish jarayonida shunga ahamiyat berish kerakki, ta’lim dasturi qaysi ta’lim darajasiga ishlab chiqilayotgan bo‘lsa, kasbiy standartning o‘sha malaka darajalariga tegishli toifalarni talablaridan foydalanish lozim. Mehnat harakatlari asosida kasbiy kompetensiyani aniqlab olgandan keyin kasbiy standartdan mehnat harakati, ya’ni kompetensiyani bajarish uchun talab etiladigan bilim va ko‘nikmalar ajratib olinadi [3].



XULOSA

Mazkur bilim va ko'nikmalar o'qitish natijasida sifatida aks etadi. Demak, kasbiy kompetensiyani bajara olish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalar o'qitishning natijasi hisoblanadi. Bitta kasbiy kompetensiyada bir yoki bir nechta o'qitish natijasi bo'lishi mumkin. Bitta kompetensiya doirasida shakllanadigan o'qitish natijalarining maksimal miqdori 7 tadan ko'p bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarova, M., & Abdisharipova, Sh. (2023). Zamonaviy ta'lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuv ta'lim sifatining asosi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 35–38.
2. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. 2004. № 4. – с 3.
3. Sharofaddinov Sh.A. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda natijaga yo'naltirilgan ta'limning metodik tizimini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2024. – BB. 11-13.